

**“ТАСДИҚЛАЙМАН”**  
**Фарғона вилоят**  
**Компьютерлаштириш**  
**маркази директори**



**С. Махмудов**  
**2015 й.**

## **Neft mahsulotlarini avtomobilarga yonilg'i quyish shoxobchalari va moy almashtirish punktlari orqali sotish bo'yicha faoliyatni litsenziyalash**

### **Xizmat haqida**

Neft mahsulotlarini avtomobilarga yonilg'i quyish shoxobchalari va moy almashtirish punktlari orqali sotish bo'yicha faoliyatni litsenziyalash.

Xizmatning sohaga tegishliligi

Litsenziyalash va ruxsat etuvchi hujjatlar.

Xizmatdan foydalanuvchining toifasi

Yuridik shaxslar.

Bog'lanish

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Xizmatni ko'rsatish uchun kerak bo'ladigan hujjalar

a) yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili), bank

muassasasining nomi va bankdagi hisob raqami, faoliyatning (yoxud uning bir qismining)

litsenziyalanadigan turi ko'rsatilgan holda litsenziya berish to'g'risidagi ariza;

b) yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;

v) litsenziya berish to'g'risidagi arizaning litsenziyalovchi organ tomonidan ko'rib chiqilganligi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

g) faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun foydalaniladigan standartlar, normalar va qoidalarga muvofiq keluvchi binolar, inshootlar, muhandislik kommunikatsiyalari va texnologik asbob-uskunalarga egalik huquqining yoki boshqa ashyoviy huquqning mavjudligini tasdiqlovchi hujjat;

d) “O'zdavneftgazinspeksiya” hududiy bo'limining avtomobilarga yonilg'i quyish shoxobchalari va moy almashtirish punktlarining neft mahsulotlarini qabul qilish, saqlash, hisobga olish va sotish uchun asbob-uskunalar bilan taminlanganligi holati, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning maxsus ma'lumotga egaligi to'g'risidagi xulosasi;

- e) O'zbekiston Respublikasi "Sanoatkontexnazorat" davlat inspeksiyasi bo'linmasining avtomobilgara yonilg'i quyish shoxobchasi va moy almashtirish punktining neft mahsulotlarini qabul qilish, saqlash va sotishda mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligiga oid qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasi;
- j) yong'in nazorati hududiy organlarining avtomobilgara yonilg'i quyish shoxobchasi va moy almashtirish punktining yong'indan saqlash talablariga muvofiqlik to'g'risidagi xulosasi;
- z) "O'zstandart" agentligining hududiy standartlashtirish va metrologiya boshqarmalari tomonidan beriladigan metrologik taminot to'g'risidagi xulosa;
- i) O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi bo'linmasining avtomobilgara yonilg'i quyish shoxobchasi va moy almashtirish punktining tabiatni muhofaza qilish va ekologiya talablariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasi.

Xizmatni ko'rsatishning huquqiy asosi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Neft mahsulotlarini sotish bo'yicha faoliyatni litsenziyalash to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 2003 yil 28 iyundagi 289-son qarori; O'zbekiston Respublikasining «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi 2000 yil 25 maydagi 71-II-son qonuni.

Xizmat narxi va to'lash tartibi

Litsenziya berish to'g'risidagi arizaning ko'rib chiqilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining bir baravari miqdorida yig'im undiriladi.

Xizmatni ko'rsatish muddati

Litsenziya berish yoki lisenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish uchun hujjatlarni ko'rib chiqish muddati litsenziya olishga ariza va barcha zarur hujjatlar tushgan kundan boshlab o'ttiz kunni tashkil qiladi.

Natijani olish usullari

Shaxsan, pochta yoki elektron pochta orqali.

Xizmat natijasi

Neft mahsulotlarini avtomobilgara yonilg'i quyish shoxobchalari va moy almashtirish punktlari orqali sotish bo'yicha faoliyatni litsenziyalash bo'yicha arizani ko'rib chiqish to'g'risida xabarnoma.

Rad etish sabablari

O'zbekiston Respublikasining "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida" (2000 yil 25 may 71-II - son) qonuning 17 moddasiga ko'rsatilgan sabablar litsenziya berishni rad etish uchun asos bo'ladi.

Shikoyat arizasi berish tartibi

Litsenziya beruvchi organ rahbariga murojaat etish.